

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01**  
**RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**YADGAROV AKRAM AKBAROVICH**

**AGROSANOAT MAJMUI KORXONALARI FAOLIYATINI**  
**SUG'URTALASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023 yil**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**

**Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract**

**Yadgarov Akram Akbarovich**

Agrosanoat majmui korxonalari faoliyatini sug'urtalash metodologiyasini takomillashtirish..... 3

**Ядгаров Акрам Акбарович**

Совершенствование методологии страхования деятельности предприятий агропромышленного комплекса..... 35

**Yadgarov Akram Akbarovich**

Improving the methodology for insuring the activities of enterprises of the agro-industrial complex..... 67

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 73

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01**  
**RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**YADGAROV AKRAM AKBAROVICH**

**AGROSANOAT MAJMUI KORXONALARI FAOLIYATINI**  
**SUG'URTALASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023 yil**

**Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.DSc/Iqt458 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portali (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Burxanov Aktam Usmanovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich**  
akademik, iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor

**Qo'zieva Nargiza Ramzanovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Umarov Sunatulla Abdullaevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat agrar universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi Manzil: 100066, Toshkent shahri Islom Karimov ko'chasi 49 uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2023 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_raqamli reestr bayonnomasi).

**M.P. Eshov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**U.V. G'afurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ro‘y berayotgan global iqlim o‘zgarishlari xavfining ortib borishi, texnogen va kutilmagan tabiiy ofatlar natijasida moliyaviy talafotlarning yildan-yilga ortishi, oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarning yuzaga kelishi dunyo hamjamiyati va tadqiqotchilarining e‘tiborini o‘ziga tortgan holda xalqaro sug‘urta tashkilotlarini ham tahlikaga solmoqda. Global iqlim o‘zgarishining bevosita qishloq xo‘jaligi faoliyatiga jiddiy ta‘siri natijasida aholining oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq turli muammolarini keltirib chiqarmoqda. Xususan, «iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xavf-xatarlar ro‘y berishi oqibatida 2021 yilda ko‘rilgan zararining 105 mlrd. AQSh dollari global sug‘urtalovchilar tomonidan qoplab berildi»<sup>1</sup>. Agrar sektorda yuzaga kelayotgan tabiiy xavf-xatarlarni oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta‘sirini yumshatish va qishloq xo‘jaligi ekinlari hosili va chorvachilikdagi yo‘qotishlarni bartaraf etish agrosug‘urta sohasidagi ilmiy-tadqiqotlarni davom ettirishni taqozo etmoqda.

Jahonda global raqobatning kuchayishi sharoitida mamlakatlar milliy iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida sug‘urta faoliyatidan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xavf-xatarlar kuchayishi, ekstremal va texnogen hodisalar natijasida qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligining pasayishi, chorva yaylovlarining qisqarib borishi hamda chorva hayvonlari uchun ozuqa bazasining kamayishi bilan bog‘liq hodisalardan sug‘urtalash, agrosanoat majmui korxonalarini faoliyatini sug‘urtalashning huquqiy manfaatlarini himoyalashning metodologik asoslarini ishlab chiqish, agrosug‘urta sohasida ko‘rsatilayotgan sug‘urta xizmatlari bo‘yicha tabaqalashtirilgan tariflarni ishlab chiqishda aktuar hisobni yuritish, agrosanoat majmuida qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini sug‘urtalash xarajatlarini kamaytirish borasida raqamli texnologiyalarni joriy etish, agrosanoat majmui korxonalarini sug‘urtalashda indeks sug‘urtalashning uslubiy jihatlarni o‘rganish, agrosanoat majmui korxonalarini sug‘urtalashni strategik jihatdan rivojlantirish borasidagi ilmiy-tadqiqotlar ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasining 30-maqсадiga muvofiq “Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash ko‘lamini kengaytirish va qishloq xo‘jaligini sug‘urtalashning yangi mexanizmlarini amaliyotga joriy etish” masalalariga e‘tibor qaratish borasidagi vazifalar belgilab berilgan<sup>2</sup>. Shu jihatdan, bugungi kunda global iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq sharoitga moslashuvchan sug‘urta faoliyatini yaratish, ularning bozor kon‘yunkturasiga mos holda diversifikatsiyalash hamda raqobatbardoshligini oshirish, agrar tarmoqda “Aqlli qishloq xo‘jaligi” doirasida innovatsion texnologiyalarni izchillik bilan joriy etish, qishloqda kambag‘allikni qisqartirish asnosida qishloq aholisi turmush tarzini yaxshilash, mamlakat aholisining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda sug‘urta kompaniyalarining qishloq xo‘jaligiga kirib borishini qo‘llab-

<sup>1</sup> Swiss Re Institute. <https://www.swissre.com/media/news-releases/nr-20211214-sigma-full-year-2021-preliminary-natcat-loss-estimates.html>.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz.ru/docs/5841063>

quvvatlash va sohada investitsion muhitni yaratish, agrar sektorda sug'urta xizmatlarining ulushini yanada oshirish hamda xizmat ko'rsatishning sifat darajasini ko'tarish, ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlarini baholash borasida ilmiy izlanishlarni olib borish zarurligini namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2019 yil 2 avgustdagi PQ-4412-son "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 iyundagi 505-son "Paxta xom ashyosi va boshqoli don ekinlarining bo'lg'usi hosilini sug'urtalash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli bo'lgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

### **Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi<sup>3</sup>.**

Agrar sektor faoliyatini sug'urtalashni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bilan bog'liq ilmiy-tadqiqot ishlari dunyo e'tirof etgan ko'plab ilmiy-tadqiqot institutlari, ilmiy-analitik tadqiqot markazlari, oliy ta'lim muassasalari hamda sohaga tegishli bo'lgan mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan sug'urta tashkilotlari, shu jumladan, International Insurance Society(IIS), International Association of Insurance Supervisors (IAIS), Federal Crop Insurance Corporation (FCIC), Great American Insurance Group (GAIG), National Bureau of Economic Research (NBER),

---

<sup>3</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi quyidagi manbaalar asosida ishlab chiqilgan: International Insurance Society (IIS). <https://www.internationalinsurance.org>; International Association of Insurance Supervisors (IAIS). <https://www.iaisweb.org/page/about-the-iais>; Federal Crop Insurance Corporation (FCIC). <https://www.rma.usda.gov/Federal-Crop-Insurance-Corporation>; Great American Insurance Group(GAIG). <https://www.greatamericaninsurancegroup.com>; National Bureau of Economic Research (NBER). <https://www.nber.org/papers/w27564>; Institute for Economic Policy Research of the Stanford University. <https://siepr.stanford.edu/people/senior-fellows>; Department of Economics, International Association of Insurance Supervisors (IAIS). <https://www.iaisweb.org/page/supervisory-material/insurance>; European Insurance and Occupational Pensions Authority (EIOPA) <https://www.eiopa.europa.eu/pensions-insurance-organisation/insurance>; European Insurance and Reinsurance Federation(SEA). <https://www.insuranceeurope.eu>; Swiss Re Institute. <https://www.swissre.com/media/news-releases/nr-2021>; The Geneva Association/Insurance for a better world. <https://www.genevaassociation.org>; Association of Hungarian Insurance Companies. <https://mabisz.hu/wp-content/uploads>; UNU Institute for Environment and Human Security (Germaniya). <https://ehs.unu.edu/research/insurisk-assessment-tool-disaster-risk-and-readiness-for-insurance-solutions>; Global Index Insurance Facility (GIIF). <https://www.indexinsuranceforum.org/climate-insurance>; Munich Climate Insurance Initiative (MCII). <https://climate-insurance.org>. KPMG Академия Россия. <https://assets.kpmg/content/dam/kpmg/ru/pdf>; Медиа-Информационная Группа «Страхование сегодня» (МИГ). <https://www.insur-info.ru/agro-insurance>; Белорусская ассоциация страховщиков. <https://belasin.by/insurance>; Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации. <http://www.fa.ru/org/faculty/fef>; Российской экономической университет им. Г.В.Плеханова. <https://www.rea.ru/>; <https://belasin.by/assets/files/analysis/strahovoj-rynok-2020-szhatyj.pdf>; Российская Национальная Перестраховочная Компания. <https://nrnc.ru/about/company>.

Institute for Economic Policy Research of the Stanford University (AQSh), European Insurance and Occupational Pensions Authority (EIOPA), European Insurance and Reinsurance Federation (SEA), Swiss Re Institute, The Geneva Association/Insurance for a better world (Shveysariya), Association of Hungarian Insurance Companies, UNU Institute for Environment and Human Security (Germaniya), Global Index Insurance Facility (GIIF), Munich Climate Insurance Initiative (MCII), (KPMG Академия Россия, Медиа-Информационная Группа «Страхование сегодня» (МИГ), Белорусская ассоциация страховщиков, Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации, Российский экономический университет им. Г.В.Плеханова, Российская Национальная Перестраховочная Компания (Россия), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent moliya instituti tomonidan amalga oshirilmoqda.

Agrar sektorni sug'urtalash faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy amaliy natijalar olingan, shu jumladan, agrar sohada sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilarning sug'urta sohasidagi iqtisodiy bilimlarini oshirishda raqamli platformalardan foydalanish ko'rsatib berilgan (International Insurance Society (IIS)); agrar sohadagi risklarni baholash va agrar sektorni sug'urtalash orqali moliyaviy barqarorlikni saqlashda sug'urta xizmatlarini kengaytirish masalasi yoritilgan (International Association of Insurance Supervisors (IAIS)); qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'urtalash orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish masalasi ko'rsatilgan (Federal Crop Insurance Corporation (FCIC)); fermer xo'jaliklarini iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavflardan ekin hosilini sug'urtalash bo'yicha talabni o'rganish, sug'urtalash xizmatlari doirasida raqobat muhitini ta'minlash yo'llari ko'rsatilgan (Great American Insurance Group (GAIG)); iqlim o'zgarishi bilan bog'liq kelajakdagi tabiiy ofatlarga sug'urta sektorining moslashishi va shunga mos sug'urta turlari va hamda uning standartlari asosida baholash mezonlari yoritilgan (European Insurance and Occupational Pensions Authority (EIOPA)); iqlim o'zgarishiga mos sug'urta modellarini yaratish, tabiiy ofatlarning keltirayotgan moliyaviy zararlarini baholash hamda sug'urta kompaniyalari va sug'urtalanuvchilar o'rtasida axborot almashish masalalari yoritilgan (European Insurance and Reinsurance Federation (SEA)), Swiss Re Institute, The Geneva Association/Insurance for a better world (Shveysariya), Association of Hungarian Insurance Companies, UNU Institute for Environment and Human Security (Germaniya), Global Index Insurance Facility (GIIF), Munich Climate Insurance Initiative (MCII); MDH davlatlarida (KPMG Академия Россия, Медиа-Информационная Группа «Страхование сегодня» (МИГ), Белорусская ассоциация страховщиков, Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации, Российский экономический университет им. Г.В.Плеханова, Российская Национальная Перестраховочная Компания (Россия) iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq tabiiy ofatlardan sug'urtalash faoliyatini tartibga solishning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan.

Dunyoda hozirgi kunga kelib, global iqlim o'zgarishi jarayonida jahon mamlakatlari qishloq xo'jaligini ustuvor darajada rivojlantirish hamda qishloq xo'jaligini sug'urtalashga bo'lgan e'tiborni yanada oshirish borasida quyidagi

yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta'minlashda agrosanoat majmui korxonalari faoliyatini sug'urtalashni iqtisodiy-huquqiy jihatdan himoyalash uslubiyatini takomillashtirish; agrar sektorga taqdim etilayotgan sug'urta xizmatlari tariflarini tabaqalashtirish metodologiyasini takomillashtirish; raqamli texnologiyalar asosida agrar sektorni sug'urtalash faoliyatini transformatsiya qilish; qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini sug'urtalash xarajatlarini kamaytirishda geaxborot tizimi texnologiyalarini joriy etishni takomillashtirish; chorvachilik sug'urtasining hududiy moslashtirish metodologiyasini takomillashtirish; iqlim o'zgarishiga mos sug'urta faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishda indeks sug'urtasini uslubiy jihatlarini takomillashtirish.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarining iqtisodchi olimlaridan A.V.Nikitin, Yu.N.Paraxin, N.M.Yashina, N.V.Kirillova, G.A.Nasirova, M.V.Arshba, D.I. Yegorov, A.A.Nazarova, V.V.Pokidova, I.P.Xominich, Ye.V.Dik, V.B.Gomellya, Yu.T.Axvlediani, T.I.Prosandeeva, Yu.A.Spletuxov va boshqalar tomonidan ham qishloq xo'jaligini turli risklardan sug'urtalash holati o'rganilganligi, agrosanoat majmui korxonalarini sug'urtalashda subsidiyalashni amalga oshirish yo'llari, agrar sohada sug'urtalash muammolari va sug'urtalashga ta'sir etuvchi omillarni kamaytirish hamda agrar sohani barqaror rivojlantirishda sug'urta tizimini rivojlantirishning ayrim yo'nalishlari tadqiq etilgan<sup>4</sup>.

---

<sup>4</sup>Никитин А.В. Государственная поддержка страхования сельскохозяйственных рисков: теория, методология и практика. // 08.00.05 - Экономика и управление народным хозяйством (экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами АПК и сельское хозяйство); 08.00.10. - Финансы, денежное обращение и кредит (страхование). Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Москва. 2008. - 47 с.; Парахин Ю.Н. Страхование в аграрной сфере: теория, методология, практика. //08.00.05 - Экономика и управление народным хозяйством: (экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами - АПК и сельское хозяйство); 08.00.10 - Финансы, денежное обращение, кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических. Воронеж-2011. - 52 с.; Яшина Н.М. Обеспечение финансовой устойчивости страховой организации: теория, методология и практика. // 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат диссертации на соискание учёной степени доктора экономических наук. Москва-2008. - 41 с.; Кириллова Н.В. Страхование промышленных предприятий: теория, методология, практика. Автореферат диссертации на соискание ученой степени д.э.н. - М.: - 2007. - с. 41.; Насырова Г.А. Институциональное обеспечение системы регулирования страховой деятельности. Автореферат диссертации на соискание ученой степени д.э.н. - СПб.: - 2017. - с.38.; Аршба М.В. Страхование обеспечения устойчивости воспроизводственного режима функционирования сельскохозяйственных товаропроизводителей. // 08.00.10 – финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Ростов-на-Дону – 2014. – 25 с.; Егоров Д.И. Страхование сельскохозяйственных рисков// 08.00.10-Финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва-2010. –22 стр.; Назарова А.А. Совершенствование сельскохозяйственного страхования с государственной поддержкой в России. 08.00.05. - Экономика и управление народным хозяйством (экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами: АПК и сельское хозяйство); 08.00.10. - Финансы, денежное обращение и кредит (рынок страховых услуг). Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва – 2015.; Покидова В.В. Развитие страхования урожая, осуществляемого с государственной поддержкой. // 08.00.10 – финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Волгоград-2011.; Хоминич И.П., Дик Е.В. Мировой страховой рынок. //Учебник. –Москва.: КНОРУС, 2020.-400 стр.; Гомелля В.Б. Очерки экономической теории страхования / под ред. Е.В. Коломина- М.: Финансы и статистика, 2010. - 352 с.; Ахвледiani Ю.Т. Рынок страховых услуг: современные тенденции и перспективы развития: монография/. - Москва: РУСАЙНС, 2017. - 236 с.; Просандеева Т.И. Особенности формирования спроса и стимулирования предложения на рынке агрострахования//Специальность: 08.00.05–Экономика и управление народным хозяйством: маркетинг. Ростов-на-Дону – 2018. 26 с.; Сплетухов Ю.А. Сельскохозяйственное страхование в России и за рубежом: сравнительная характеристика. Финансовый журнал / Financial Journal №1 2018.

O‘zbekistonda sug‘urta bozorini rivojlantirish, xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarni sug‘urtalash va sug‘urta faoliyatini rivojlantirish masalalari doirasida mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan X.M.Shennaev, S.A.Umarov, Q.M.Qo‘ldoshev, R.S.Azimov, A.U.Burxanov, T.M.Baymuratov, A.S.Nurullaev, I.X.Abduraxmonov, X.I.Boev, N.A.Mavrulova, I.G‘.Kenjaev, G.T.Xalikulova, B.O‘.Haqberdiev, D.N.Baymirzaev, J.T.Nosirov, D.A.Baratova, A.R.Vaxobovlarning ilmiy ishlarida umumiy sug‘urta faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlari tadqiq etilgan<sup>5</sup>.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotchilarning ilmiy ishlarini o‘rganish natijasi sifatida agrosanoat majmui korxonalarini sug‘urtalash faoliyatining nazariy, metodologik jihatlarini kompleks, tizimli va yaxlit holda chuqur o‘rganilmaganligini ko‘rsatdi. Mamlakatimizda agrosanoat majmui korxonalarini sug‘urtalash faoliyatini rivojlantirish muammosining dolzarbligi va mazkur muammoning tadqiqot ishlarida hamda sohaga tegishli ilmiy nashrlarda yetarli darajada o‘rganilmaganligi ushbu muammoni tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo‘ldi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-20170928535 “O‘zbekistonda investitsiya fondlarining o‘ziga jalb etish mexanizmini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyiha (2018-2020 yy.) doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui korxonalarini faoliyatini sug‘urtalash metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

---

<sup>5</sup> Шеннаев Х.М. Ўзбекистон Республикасида суғурта фаолиятини ривожлантириш йўналишлари//08.00.07– “Молия, пул муомаласи ва кредит” ихтисослиги бўйича и.ф.д. даражасини олиш учун диссертация автореферати. ТМИ: 2021.-84 б.; Умаров С.А. Иқтисодийни модернизация қилиш шароитида Ўзбекистонда суғурта фаолияти ривожланишини бошқариш. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т.: 2012.- 49 б.; Қўлдошев Қ.М. Ўзбекистонда ўзаро суғурталашнинг методологик асосларини такомиллаштириш. Иқтисодий фанлари доктори (DSc) диссертация автореферати. – Т.: 2019. – 75 б.; Азимов Р.С., Иқтисодийни модернизациялаш шароитида рискларни суғурталаш методологиясини такомиллаштириш. Иқтисодий фанлари доктори (DSc) диссертация автореферати. – Т.: 2022. – 86 б.; Бурханов А.У. Молиявий хавфсизлик. Ўқув қўлланма. Тошкент “Маънавият”-2019.-220 бет.; Баймуратов Т.М. Ўзбекистонда суғурта фаолияти ва уни солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати – Т.: 2004. – 22 б.; Нуруллаев А.С. Ўзбекистонда фермер ва деҳқон хўжалиklarини суғурталаш масалалари – Т.: 2007. - 24 б.; Абдурахмонов И.Х. Ўзбекистон Республикасида жавобгарликни суғурталашнинг амалиётини такомиллаштириш. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати.– Т.: 2010. – 20 б.; Боев Х.И. Суғурталаш. Ўқув қўлланма.-Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти., 2005.120 б. Маврулова Н.А. Суғурта компанияларининг молиявий барқарорлигини таъминлашда қайта суғуртанинг ролини ошириш. Иқтисодий фанлари бўйича ф.д. (PhD) диссертация автореферати. – Т.: 2019. – 62 б.; Кенжаев И.Ф. Суғурта ташкилотларининг молиявий ресурсларини жойлаштириш самарадорлигини ошириш йўллари. Иқтисодий фанлари бўйича ф.д. (PhD) диссертация автореферати. – Т.: 2019. -59 б.; Халикулова Г.Т. Суғурта тизими ва уни амал қилиш механизмини такомиллаштириш. Иқтисодий фанлари бўйича ф.д. (PhD) диссертация автореферати. – Т.:2019. - 62 б.; Ҳақбердиев Б.Ў. Ўзбекистонда суғурта компанияларининг молиявий барқарорлигини таъминлаш йўналишлари. Иқтисодий фанлари бўйича ф.д. (PhD) диссертация автореферати. – Т.:2020. - 63 б.; Баймирзаев Д.Н. Қишлоқ хўжалигида хатарларни суғурталашнинг хорижий мамлакатлар тажрибаси.// “Иқтисодий ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 1, 2019 йил; Носиров Ж.Т. Суғурта компанияларининг молиявий барқарорлигини таъминлаш амалиётини такомиллаштириш. Иқтисодий фанлари бўйича ф.д. (PhD) диссертация автореферати. – Т.: 2021.–53 б.; Баратова Д.А. Ўзбекистонда жамғариб бориладиган ҳаёт суғуртасини ривожлантириш йўллари. Иқтисодий фанлари бўйича ф.д. (PhD) диссертация автореферати.–Т.: 2020.–54 б.; Вахобов А.Р. Кредитларни суғурталаш тизими ўзини оқлаётими? Банк ахборотномаси 2019 йил 16 май 20-сон.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

agrosanoat majmui korxonalari faoliyatini sug'urtalashni rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslarini tadqiq etish;

agrosanoat majmui korxonalarini sug'urtalash faoliyatining tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarini tadqiq etish;

agrosanoat majmuida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish holati va sug'urtaviy himoyalash darajasini ekspert baholash asosida tavsiyalar ishlab chiqish;

agrosanoat majmuida qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini sug'urtalash holatini o'rganish va sug'urtalanmagan tabiiy ofatlar va kasalliklarni sug'urtalashga joriy qilish bo'yicha takliflarni ilmiy asoslash;

agrosanoat majmuida chorva hayvonlarini sug'urtaviy himoyalashni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

agrosanoat majmui korxonalari faoliyatini sug'urtalash tizimini rivojlantirishni ekonometrik modellar asosida istiqbolini belgilash;

agrosanoat majmuida sug'urtalangan ob'ektlar holatini monitoring qilish uslubiyotini takomillashtirishda raqamli GAT texnologiyalaridan foydalanishni ilmiy asoslash;

agrosanoat majmui korxonalari faoliyatini sug'urtalashda aktuar hisoblar asosida sug'urta xavflari darajasidan kelib chiqqan holda tabaqalashgan sug'urta tariflarini joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

iqlim o'zgarishlari ta'siridagi moliyaviy yo'qotishlardan himoyalashda indeks sug'urtalashni joriy etish va baholash metodologiyasini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui korxonalari va "O'zagrosug'urta" AJ faoliyati olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib agrosanoat majmui korxonalari faoliyatini sug'urtalashni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish bilan bog'liq tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada o'rganilayotgan jarayonlarga tizimli tahliliy yondashuv, ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazish, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, iqtisodiy prognozlashtirish, kartografik ta'minot va axborotlarni raqamlashtirish, o'zaro va qiyosiy taqqoslash, monografik kuzatuv kabi usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

agrosanoat majmuida paxta xom ashyosi va boshqali don ekinlarining bo'lg'usi hosilini yetishtirishga beriladigan imtiyozli kreditlarning 4 foizi miqdoridagi sug'urta xarajatlarini tijorat banklari tomonidan qoplanishini sug'urta tashkilotiga o'tkazish taklifi asoslangan;

chorva hayvonlarini sug'urtalash tartibiga yangi paydo bo'lgan yoki keng tarqalayotgan kasallik turlarini kiritib borish va aktuar hisoblar natijasida tabaqalashgan sug'urta tariflarini joriy etish asosida sug'urta qamrovini 20 foizgacha oshirish taklifi asoslangan;

sug'urtalangan qishloq xo'jaligi ekinlari va boshqa sug'urtalangan ob'ektlar holatini baholashda raqamli geoaxborot tizimi texnologiyalaridan foydalanish asosida

monitoring sarflarini 25-50 foizgacha qisqartirish orqali sug'urta xarajatlarini kamaytirish metodologiyasi taklif etilgan;

agrosanoat majmui korxonalarini sug'urtalashda indeks sug'urtalash (qurg'oqchilik, ekstremal yog'inlar, muzlamali kunlar, issiqlik stress indeksleri) ni joriy etishda xavflar darajasi bo'yicha "xavfsiz" (0-1 oraliqda), "kuchsiz xavfli" (1-2 oraliqda), "o'rta xavfli" (2-3 oraliqda), "kuchli xavfli" (3-4 oraliqda), "juda kuchli xavfli" (4-5 oraliqda) taqqoslash koeffitsientlari asosida shkalali baholash uslubiyoti taklif etilgan;

"O'zagrosug'urta" AJ ning daromadi sifatida sug'urta mukofotlari tushumi hajmi o'zgarishlarining 2028-yilga qadar prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

agrosanoat majmui korxonalarini faoliyatini sug'urtalash tizimini rivojlantirish borasida "agrosug'urta" atamasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

agrosug'urta tizimini huquqiy rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish uslubiyati asoslab berilgan;

agrosanoat majmui korxonalarining sug'urtaviy qamrov darajasini oshirishga xizmat qiluvchi paxta, g'alla va chorva hayvonlari bo'yicha kasallik va tabiiy ofatlar turlari aniqlangan va uni tegishli qarorlarga va sug'urta qiluvchi tashkilotlarning tartib-qoidalariga kiritish lozimligi asoslangan;

ekonometrik modellar asosida agrosug'urta tizimini rivojlantirishning ko'p variantli prognoz senariylari ishlab chiqilgan;

agrosanoat majmuida sug'urtalangan paxta xom ashyosi, boshqali don ekinlari, meva-sabzavotchilik, uzumchilik va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari holatini doimiy monitoringini olib borishga, sohadagi muammolarni o'z vaqtida aniqlashga hamda ularni bartaraf etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqishga mo'ljallangan uslubiy tavsiyalar berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot ishida qo'llanilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo'yicha xulosa, taklif va tavsiyalarining aniqligini ta'minlab beruvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi, Davlat statistika qo'mitasi, "O'zagrosug'urta" AJ va boshqa tadqiqotga aloqador bo'lgan tashkilotlarning rasmiy saytida e'lon qilingan ma'lumotlari, xorijiy va mamlakatimiz olimlarining ekspert baholari hamda ishlanmalari, xalqaro tashkilotlar nashriy manbaalari, sug'urta kompaniyalarining yillik hisobotlari, shuningdek, tadqiqotchining shaxsiy ilmiy-tadqiqot ma'lumotlaridan tashkil topganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan nazariy xulosalar va ular asosida shakllangan takliflardan agrosanoat majmui korxonalarini faoliyatini sug'urtalashning nazariy va metodologik asoslarini yaratish, agrosug'urta faoliyatini xalqaro standart talablariga muvofiqlashtirish hamda qishloq xo'jaligini sug'urtalash qamrovini oshirish, agrosug'urta bo'yicha moliyaviy xarajatlarni kamaytirishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan amaliy xulosa va takliflardan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi Davlat dasturi hamda “O‘zagrosug‘urta” aksiyadorlik jamiyati tomonidan mamlakatimizda agrosug‘urta faoliyatini tartibga solish va takomillashtirish bilan bog‘liq me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, sug‘urtalash tartib-qoidalari hamda oliy ta‘lim muassasalarida o‘qitiladigan sug‘urta faoliyatiga oid fanlarning o‘quv dasturlarini mazmunan boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui korxonalari faoliyatini sug‘urtalash metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflari asosida:

agrosanoat majmuida qishloq xo‘jaligi tavakkalchiligini sug‘urtalashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonining 30-maqсадida va 2022 yil –“Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” Davlat dasturining 136-bandida hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-dekabrda 694-sonli “Elektron turdagi sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarorning 5-bandida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy islohotlar qo‘mitasining 2023-yil 13 martdagi 04/1-11-360-son ma‘lumotnomasi, “Taraqqiyot strategiyasi” Markazi 2022-yil 12-aprelda №1016-son ma‘lumotnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2022-yil 28-dekabrda 04/28-28-9903-son ma‘lumotnomasi). Natijada, mazkur taklif asosida ishlab chiqilgan “Qishloq xo‘jaligi tavakkalchiliklarini sug‘urtalash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi qishloq xo‘jaligi korxonalari, xususan, fermer va dehqon xo‘jaliklari faoliyati, xo‘jaliklarning mulkiy manfaatlari himoyasi hamda iqtisodiy samaradorligini va moliyaviy barqarorligini ta‘minlashga xizmat qilgan;

agrosanoat majmuida paxta xom ashyosi va boshqoli don ekinlarining bo‘lg‘usi hosilini yetishtirishga beriladigan imtiyozli kreditlarning 4 foizi miqdoridagi sug‘urta xarajatlarini tijorat banklari tomonidan qoplanishini sug‘urta tashkilotiga o‘tkazish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2022-yil 28-dekabrda 04/28-28-9903-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida agrar tarmoqda paxta xom ashyosi, boshqoli don ekinlari, meva-sabzavotchilik, uzumchilik hamda boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlarining bo‘lg‘usi hosilini sug‘urtalash bilan birga hududlarning iqlim xususiyatlarini hisobga olgan holda tabaqalashgan sug‘urta tariflarining joriy etilishi sug‘urtalanuvchi qishloq xo‘jaligi korxonalari sonining 30 foizgacha ortishiga imkon yaratgan;

chorva hayvonlarini sug‘urtalash tartibiga yangi paydo bo‘lgan yoki keng tarqalayotgan kasallik turlarini kiritib borish va aktuar hisoblar natijasida tabaqalashgan sug‘urta tariflarini joriy etish asosida sug‘urta qamrovini 20 foizgacha oshirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda “O‘zagrosug‘urta” AJ faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq

xo'jaligi vazirligining 2022-yil 28-dekabrda 04/28-28-9903-son ma'lumotnomasi, "O'zagsug'urta" AJ ning 2023-yil 9-martda 01-07/374-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning joriy etilishi hududlar kesimida sug'urtalanadigan chorva mollari sonini o'rtacha yiliga 2,5 foizga va sug'urta qamrovi 20 foizga oshirish imkonini bergan;

sug'urtalangan qishloq xo'jaligi ekinlari va boshqa sug'urtalangan ob'ektlar holatini baholashda raqamli geoaxborot tizimi texnologiyalaridan foydalanish asosida monitoring sarflarini 25-50 foizgacha qisqartirish orqali sug'urta xarajatlarini kamaytirish metodologiyasidan foydalanish taklifi "O'zagsug'urta" AJ faoliyatiga joriy etilgan ("O'zagsug'urta" AJ ning 2023-yil 9-martda 01-07/374-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning joriy etilishi agrosanoat majmui korxonalarini sug'urtalashda raqamli GAT texnologiyalarini joriy etish orqali sug'urtalanadigan barcha turdagi qishloq xo'jaligi ekinlari hosili holatini monitoring qilishda sug'urta xarajatlarini 25-50 foizgacha qisqarishiga xizmat qilgan;

agrosanoat majmui korxonalarini sug'urtalashda indeks sug'urtalash (qurg'oqchilik, ekstremal yog'inlar, muzlamali kunlar, issiqlik stress indeksleri)ni joriy etishda xavflar darajasi bo'yicha "xavfsiz" (0-1 oraliqda), "kuchsiz xavfli" (1-2 oraliqda), "o'rta xavfli" (2-3 oraliqda), "kuchli xavfli" (3-4 oraliqda), "juda kuchli xavfli" (4-5 oraliqda) taqqoslash koeffitsientlari asosida shkalali baholash uslubiyotidan foydalanish taklifi "O'zagsug'urta" AJ faoliyatiga joriy etilgan ("O'zagsug'urta" AJ ning 2023-yil 9-martda 01-07/374-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning joriy etilishi natijasida, qishloq xo'jaligini sug'urtalashda raqamli xaritalarni joriy etilishi, indeks sug'urtalash bo'yicha ishlab chiqilgan baholash shkalasi va raqamli xaritalar bevosita ob-havo indeksiga ko'ra, sug'urta xavflarini aniqlashda samarali vosita sifatida zamonaviy texnologiyalar va usullar orqali sug'urta xarajatlarini 20 foizgacha qisqartirishga erishilgan;

"O'zagsug'urta" AJ ning daromadi sifatida sug'urta mukofotlari tushumi hajmi o'zgarishlarining 2028-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz qiymatlaridan agrosanoat majmui korxonalarini faoliyatini sug'urtalashning istiqbol mo'ljallarini belgilashda foydalanilgan ("O'zagsug'urta" AJ ning 2023-yil 9-martda 01-07/374-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida agrosanoat majmui korxonalarini faoliyatini sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofotlari tushumini 2028 yilgacha pessemistik senariy bo'yicha 1,78 barobarga, realistik senariy bo'yicha 3,53 barobarga, optimistik senariy bo'yicha 5,55 barobarga orttirish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 6 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan. Olingan natijalar asosida 1 ta ma'lumotlar bazasi tuzilgan va O'zbekiston Respublikasi Intelektual mulk agentligi tomonidan mualliflik guvohnomasi (№ BGU 00565) olingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot natijalari bo'yicha jami 38 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta ilmiy monografiya, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy

jurnallarda 17 ta maqola (12 ta mahalliy va 5 ta xorijiy nashrlarda) maqolalar chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shartli belgilar va atamalar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 239 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning ilmiy ishlar rejalari bilan aloqadorligi aniqlangan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, ilmiy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati keltirilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Agrosanoat majmui korxonalari faoliyatini sug'urtalashning nazariy va uslubiy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida barqaror rivojlanish maqsadlarini ta'minlashda sug'urta faoliyatiga ilmiy yondashuvlarning umumiy tavsifi, agrosanoat majmui korxonalari faoliyatini sug'urtalashning nazariy va uslubiy asoslariga oid zamonaviy yondashuvlar tadqiq etilgan. Dunyo miqyosida insoniyatning yildan-yilga ko'payishi va tabiiy muhitga ta'sirining ortishi umumbashariy ekologik-iqtisodiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Antropogen omillar ta'sirida tabiiy-ekologik muammolarning mahalliy yoki mintaqaviy tusda emas, balki umumsayyoraviy darajada kengayib borishi bevosita iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq turli tabiiy va texnogen vaziyatlarning yildan-yilga avj olayotganligi barchaga ma'lum. Xususan, global va mintaqaviy muammolar sifatida Orol dengizining qurishi va hududlarda yirik cho'llashish, sanoat korxonalarining atmosferaga ta'sirining ortishi va kislotali yomg'irlarning hosil bo'lishi, suv resurslarining yildan-yilga taqchilligi, qishloq xo'jaligi yerlarida degradatsiya jarayonlarining kuchayishi, tabiiy va o'rmon resurslarining kamayib borishi, flora va fauna dunyosidagi ekologik xavflarning ortib borishi bevosita milliy ekotizim tanazulliga sabab bo'ldi.

Birlashgan millatlar tashkilotining 2030 yilgacha "Barqaror rivojlanish maqsadlari" doirasida qabul qilingan 15-maqsadi bevosita xalqaro miqyosda yer usti ekotizimlarini muhofaza qilish, ularni tiklash hamda barqaror foydalanishni rag'batlantirish, o'rmon resurslarini barqaror boshqarishni ta'minlash, umumiy darajada cho'llanishga qarshi kurashish hamda yer degradatsiyasini to'xtatish va qaytarish, shuningdek, biologik xilma-xillikning yo'qolishini oldini olish qaratilgan maxsus maqsad va vazifalarni belgilab oldi<sup>6</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 fevraldagi 83-sonli qarorining 13 va 15-maqsadlarida iqlim o'zgarishlari oqibatlariga qarshi kurashish, ekotizimni himoyalash va tiklash, o'rmondan oqilona foydalanish, cho'llanishga qarshi kurashish, yerlarning yemirilishini to'xtatish va ortga qaytarish,

---

<sup>6</sup> <https://sdgs.un.org/goals/goal15>. Department of Economic and Social Affairs, Sustainable Development.

bioxilma-xillikning yo‘qolib ketish jarayonini to‘xtatish kabi masalalar o‘z aksini topgan.

Barqaror rivojlanish maqsadlaridan kelib chiqqan holda global darajada dunyo aholisining buguni va kelajakdagi farovonligini ta‘minlashda olib borilayotgan islohotlar ko‘lamida mavjud ekotizimni muhofaza qilish, agrar islohotlarni samarali amalga oshirish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni davom ettirish maqsadga muvofiq.


Moliyaviy instrumentlar qatorida sug‘urta faoliyati jamiyat farovonligi hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda, agrar sohani turli xavf-xatarlardan moliyaviy jihatdan muhofaza qilishda, aholining turli mol-mulklarining himoya kafolatini ta‘minlashda, insonlarning hayoti hamda salomatligini ijtimoiy va moddiy jihatdan himoya qilishda ishtirok etadigan muhim strategik sohalardan biridir.

Agrosanoat majmui korxonalarini xom ashyo bilan ta‘minlovchi qishloq xo‘jaligi korxonalarini hisoblangan fermer va dehqon xo‘jaliklariga keng imkoniyatlar berish, ularni doimiy tarzda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, mamlakatimiz hududlarida faoliyat yuritayotgan qishloq xo‘jaligi korxonalarini qayta ixtisoslashtirish, agroxizmatlar ko‘rsatish sifatini yaxshilash, qolaversa, agrosanoat majmui korxonalarini moliyaviy jihatdan muhofaza qilishda sug‘urtalashning yangi mexanizmlarini amaliyotga joriy etish masalalari borasida ilmiy tadqiqotlarni olib borish maqsadga muvofiq. Agrosanoat majmui korxonalarini sug‘urtalashning nazariy va uslubiy jihatlarini o‘rganish, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasini baholash va sug‘urtalash bilan bog‘liq muammolarga nazariy va amaliy jihatdan yechimini topishga qaratiladi. «Sug‘urta faoliyati» «agrosug‘urta faoliyati» tushunchalari izohlangan va muallif yondashuvi berilgan.

Agrosug‘urtalash tizimini rivojlanishi qishloq xo‘jaligida iqlim o‘zgarishini yumshatuvchi moliyaviy dastak sifatida asoslashga doir quyidagi mualliflik ta‘rifini berishimiz mumkin: “Agrosug‘urtalash tizimini rivojlanishi – qishloq xo‘jaligi korxonalarida paxta, g‘alla, va boshqa turdagi qishloq xo‘jaligini ekinlarini yetishtirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, iste‘molchilarga yetkazib berish jarayonini boshqarishda xalqaro standartlarga amal qilgan holda faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish, kafolatli agrosug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish orqali qishloq xo‘jaligi korxonalariga moliyaviy ko‘mak berish, iqlim o‘zgarishi sharoitida ham qishloq xo‘jaligi korxonalarining iqtisodiy zararlarini qoplash va moliyaviy zararsizlik holatini bartaraf etishning turli ob‘ektiv, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning umumiy yig‘indisidir”.

Agrosanoat majmui korxonalarini sug‘urtalashda agrosug‘urta xizmatlarini rivojlantirishning omilli uslubiyoti 1-rasmda keltirilgan va agrar sohani sug‘urtalash borasidagi ko‘p qirrali muammolar yechimiga qaratilgan.

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi faoliyati rivojida quyidagi xavf-xatarlar, ya‘ni: iqlimiy va tabiiy xavf-xatarlar; tadbirkorlik yo‘lida uchraydigan xavf-xatarlar; ekologik va antropogen xavf-xatarlar; biologik kasalliklar natijasida sodir bo‘ladigan xavf-xatarlar va fors-major holati natijasida yuzaga keladigan xavf-xatarlar doimo o‘z ta‘sirini o‘tkazib keladi.



**1-rasm. Agrosanoat majmui korxonalari faoliyatini sug'urtalash jarayonidagi muammolarni tadqiq etishda metodologik yondashuvlarning guruhlanishi<sup>7</sup>**

<sup>7</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyada agrosanoat majmui korxonalarini sug'urtalashning mazmun va mohiyati keng yoritilgan bo'lib, aynan, qishloq xo'jaligi bevosita tabiiy ofat va kutilmagan hodisalar natijasida yirik hajmda zarar ko'ruvchi tarmoq bo'lganligi bois, ushbu sohani doimo va keng qamrovda sug'urtalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Agrar tarmoqda faoliyat ko'rsatib kelayotgan qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy manfaatlarini to'liqroq holda sug'urtalash orqali himoyalash maqsadida sug'urtaning yangi turlarini ishlab chiqish va joriy qilish muhim ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Sug'urta bozori va agrosanoat majmuini sug'urtalashning rivojlanish tendensiyalari**» deb nomlangan bo'lib, unda O'zbekiston sug'urta bozori faoliyatining rivojlanish tendensiyalari, agrosanoat majmui korxonalarini sug'urtalash faoliyatining rivojlanish bosqichlari hamda jahon amaliyotida agrosanoat majmui korxonalarini faoliyatini sug'urtalash yo'nalishlari va ilg'or tajribalarni joriy etish yo'llari ko'rsatib berildi.

Shiddatli raqobat muhiti sharoitida mamlakatimizda barcha iqtisodiy tarmoqlarning rivojlanishi moliyaviy xizmatlarni rivojlanishiga turtki berdi. Moliyaviy xizmatlar qatorida sug'urta faoliyatini ham tubdan rivojlantirish va bu borada olib borilayotgan islohotlar sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlab bermoqda.


Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmi 2011 yilda 96950 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, sug'urta mukofotining ulushi 0,21 foizni tashkil etgan. 2021 yil holatiga ko'ra, yalpi ichki mahsulot hajmi 734587,7 mlrd.so'mni tashkil etgan holda sug'urta mukofotining ulushi 0,51 foizni tashkil etib, deyarli o'n yil ichida 0,30 foizga ortishiga erishilgan.

O'zbekiston sug'urta bozorida 1997-2021 yillarda faoliyat yuritgan sug'urta kompaniyalari soni deyarli 25 yil ichida o'ziga xos o'zgarish tendensiyasiga ega bo'ldi. Xususan, 1997 yilda sug'urta kompaniyalari soni 25 tani tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilga kelib ularning soni 37 taga yetdi. Asosiy sababi, majburiy sug'urta turlarining joriy etilishi va majburiy sug'urta bo'yicha litsenziyaga ega bo'lish maqsadida sug'urta faoliyatiga qiziquvchi sug'urta kompaniyalari tashkil etildi. Sug'urta bozorida sug'urta kompaniyalari soni 2013 yilda 30 tani tashkil qilgan bo'lsa 2021 yakunlariga ko'ra sug'urta kompaniyalari soni 42 taga yetdi.


Agrosanoat majmui mamlakatimizning barcha tarmoq va sohalarini, xususan sanoatning qayta ishlash tarmoqlarini xomashyo bilan ta'minlashda hamda aholini oziq-ovqat iste'moli uchun zarur bo'lgan iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlashda, aholining deyarli 3/1 qismini ish bilan ta'minlashda muhim strategik tarmoq sifatida rivojlanib bormoqda. 2021 yil yakunlariga ko'ra mamlakat yalpi ichki mahsulotining 26,9 foizi agrar tarmoq hissasiga to'g'ri keladi.

Agrar tarmoqni sug'urtalash borasida "O'zagrosug'urta" AJ O'zbekiston sug'urta bozorida 25 yildan beri monopol tarzda faoliyat yuritib kelayapti. Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy daromadi bevosita sug'urta mukofotlari tushumi hisoblanadi. Tahlillarga ahamiyat qaratadigan bo'lsak, 2013 yilda sug'urta bozorida jami sug'urta kompaniyalari tomonidan yig'ilgan sug'urta mukofotlari 338,5 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, shuningdek, 13,3 foizi "O'zagrosug'urta" AJ hisobiga to'g'ri kelgan.

Kompaniya tomonidan 2014-2017 yillar davomidagi faoliyati boshqa yillarga nisbatan yuqoriligini ko‘rish mumkin. Biroq, 2020-2021 yillarga kelib sug‘urta bozorida kompaniyaning sug‘urta mukofotlari tushumi o‘tgan yillarga nisbatan keskin kamayganligi ya‘ni, 2021 yilda kompaniya tomonidan 260,9 mlrd. so‘m sug‘urta mukofotlari yig‘ilgan va sug‘urta bozoridagi ulushi 6,9 foizni tashkil etgan (2-rasmga qarang).



**2-rasm. "O'zagrosug'urta" AJ ning sug'urta mukofotlari tushumi bo'yicha sug'urta bozoridagi ulushi (2013-2021 yillar)**



**3-rasm. "O'zagrosug'urta" AJ tomonidan to'langan sug'urta qoplamalari bo'yicha sug'urta bozoridagi ulushi (2013-2021 yillar)<sup>7</sup>**


Agrosug‘urta faoliyatining yana bir muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida agrosanoat majmuida faoliyat yuritayotgan qishloq xo‘jaligi korxonalari, xususan, dehqon va fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalarining tabiiy ofatlar hamda boshqa stixiyali hodisalar natijasida ko‘rilgan zararlarini moliyaviy jihatdan qoplanishi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Sug‘urta bozorida sug‘urta faoliyatini olib borgan sug‘urta kompaniyalari tomonidan 2013 yilda jami qoplamalar hajmi 66,9 mlrd. so‘mni tashkil etgan holda 10,7 foizi, ya‘ni 7,2 mlrd. so‘mi "O'zagrosug'urta" AJ sug‘urta kompaniyasi hissasiga to‘g‘ri keladi. 2021 yil holatiga ko‘ra to‘langan sug‘urta qoplamalari hajmi 35,3 mlrd. so‘mni tashkil etgan holda umumiy sug‘urta qoplamalarining 2,8 foizini tashkil etgan (3-rasmga qarang).

Xalqaro sug‘urta bozorining rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish va bugungi kunda agrar sektorda turli tabiiy va stixiyali hodisalarning sodir bo‘lishi bilan bog‘liq holatlarda qishloq xo‘jaligini sug‘urtalash afzalliklari va uning ahamiyatini yanada oshirishdan iborat. Dunyoning ko‘plab rivojlangan davlatlarida innovatsion o‘zgarishlar zamirida turli texnogen hodisalarning ortib borishi, shuningdek, agrar sektorda uchrayotgan tabiiy ofatlar va tabiiy-iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq hodisalar aynan oziq-ovqat xavfi bilan bog‘liq jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Xalqaro sug‘urta bozorida erishilgan tajribalarni o‘rganish va agrosanoat majmuini korxonalari faoliyatini sug‘urtalash bilan bog‘liq natijalarni sug‘urta amaliyotiga keng joriy qilish uylaymizki, istiqbolda respublikamiz qishloq xo‘jaligida

<sup>7</sup> "O'zagrosug'urta" AJ ning tegishli yillar bo'yicha statistik ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tuzilgan.

yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, tabiiy-iqlim o'zgarishlari keltirgan talofatlarni bartaraf etishda sug'urta xizmatlaridan samarali foydalanishga asos bo'ladi.



**4-rasm. Tabiiy ofatlar natijasida sodir bo'lgan iqtisodiy yo'qotishlar hajmi (mlrd. AQSh dollari)<sup>8</sup>**

Dunyo miqyosida iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tabiiy ofatlar natijasida sodir bo'layotgan iqtisodiy yo'qotishlarni oxirgi o'n yillik ko'rsatkichlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2010 yilda 244,1 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan 2020 yilda 184,6 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan (4-rasmga qarang). Biroq, o'tgan davrning eng yirik tabiiy ofat talofatlari 2011 yilda 454,7 mlrd. AQSh dollarini, 2017 yilda 352,2 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan.

Global iqlim o'zgarishi bilan bog'liq hodislar va uning talofatlari hamda ushbu zararlarni qoplash maqsadida to'langan sug'urta qoplamalari bo'yicha holatga nazar tashlaydigan bo'lsak, ob-havo bilan bilan xavflar natijasida keltirilgan zararlilik darajasini sug'urtaviy qoplanishining eng yuqori nuqtasi 2017 yilda 152,3 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2021 yil holatiga ko'ra ushbu ko'rsatkich 101,1 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. Shuningdek, inson tomonidan yetkazilayotgan zarar miqdori ham ortib borganligini ko'rish mumkin.

Jahon amaliyotida agrosanoat majmui korxonalarini faoliyatini sug'urtalash bo'yicha yillar davomida to'plangan xorijiy tajribalardan kelib chiqib quyidagi tavsiyalarni keltirib o'tish maqsadga muvofiq:

agrosanoat majmui korxonalarini sug'urtalashning ma'muriy usullaridan iqtisodiy usullariga o'tish;

iqlim o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan tabiiy xavf-xatarlardan himoyalash bo'yicha dasturlar ishlab chiqish va sohaga innovatsion yutuqlarni qo'llash asosida takomillashtirish;

agrosanoat majmui korxonalarini sug'urtalashga sarflanadigan xarajatlarni qoplashda davlat subsidiyalash mexanizmini joriy etish;

<sup>8</sup> Manba: Swiss Re Institute - sayti ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

agrosanoat majmui korxonalarini sug'urtalashda sog'lom raqobat muhitini yaratish hamda sohaga xorijiy sug'urta kompaniyalarini kirib kelishini qo'llab-quvvatlash;

agrosanoat majmui korxonalarini faoliyatida sug'urta hodislari ro'y bermaganligi holati aniqlangan taqdirda rag'batlantirish yoki sug'urta imtiyozlarini berish maqsadida sug'urta mukofotlarini qaytirish mexanizmini ishlab chiqish;

agrosanoat majmui korxonalarini sug'urtalash tizimida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini takomillashtirish, qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat va xususiy sektor munosabatlarini shakllantirish asosida iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavf-xatarlarni sug'urtalashning ilg'or metodlarini amaliyotga joriy etish va boshqalar.

Dissertatsiyaning **«Agrosanoat majmui korxonalarini faoliyatini sug'urtalashning moliyaviy holatiga ta'siri»** deb nomlangan uchinchi bobida agrosanoat majmuida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish ko'rsatkichlari va sug'urtaviy himoyalash holati tahlili, qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini sug'urtalashning moliyaviy ko'rsatkichlari hamda chorva hayvonlarini sug'urtaviy himoyalash holati tahliliy jihatdan o'rganilgan, shuningdek, agrosanoat majmuini qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlash va sug'urtalash ko'rsatkichlari va mummolar tadqiq etilgan.

Agrosanoat majmui korxonalarini tomonidan yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining ortishi borasidagi ko'rsatkichlarni tahlil qilish natijasida yildan-yilga ortib borayotgan aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashdagi vaziyatga baho berish mumkin. Shu jihatdan, statistik ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2011 yilda paxta yalpi hosili 3483,5 ming tonna, don ekinlari 5752,2 ming tonna, sabzavotlar yalpi hosili 2364,3 ming tonna, meva-rezavorlar yalpi hosili 876,3 ming tonnani tashkil etgan. Ma'lumotlarga ko'ra, paxta yalpi hosili yildan-yilga kamayganligini ko'rish mumkin, asosiy sabab paxta maydonlari hamda paxta hosildorligining kamayishi ta'sir qilgan. 2021 yil holatiga ko'ra, paxta yalpi hosili 2640,5 ming tonna, don ekinlari 6111,9 ming tonna, sabzavotlar yalpi hosili 3966,9 ming tonna, meva-rezavorlar yalpi hosili 1202,5 ming tonnani tashkil etgan<sup>9</sup>.

Agrosanoat majmuida uchraydigan tabiiy va stixiyali xavf-xatarlar qishloq xo'jaligi faoliyatiga jiddiy ta'sir etishi bilan birga iqtisodiy yo'qotishlarga ham sabab bo'ladi. Aynan, qishloq xo'jaligi korxonalarini sug'urtalashda faoliyat yuritib kelayotgan "O'zagrosug'urta" AJ faoliyatiga tahliliy yondoshadigan bo'lsak, 2012 yilda respublika miqiyosida qishloq xo'jaligi korxonalarini bilan turli tabiiy xavf-xatarlardan sug'urtalash maqsadida tuzilgan shartnomalar soni 37443 tani tashkil etgan bo'lsa, 2021 yil yakunlariga ko'ra 405 tani tashkil etgan bo'lib, 2012 yilga nisbatan 37038 taga kamaygan.

Shuningdek, 2021 yilda qishloq xo'jaligi korxonalarini turli tabiiy xavf-xatarlardan sug'urtalash javobgarligi va sug'urta mukofotlari tushumi hajmini ham kamayganligini ko'rish mumkin. Biroq, qishloq xo'jaligi korxonalarini zararlarini qoplash maqsadida to'langan sug'urta to'lovi miqdori 2021 yilni tegishli 2017-2020 yilarga nisbatan solishtirganda keskin kamayish holati kuzatilgan. 2021 yilni 2012

---

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining tegishli yillar bo'yicha statistik ma'lumotlari.

yilga nisbatan taqqoslaganda 4 885,5 mln.so‘mga ortganligini ko‘rish mumkin. 2021 yilga kelib “O‘zagrosug‘urta” AJ faoliyatida qishloq xo‘jaligini sug‘urtalash holatida keskin pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Kompaniyaning moliyaviy jihatdan zararlilik darajasi 2017 yilda 199,4 foizni, 2021 yilda esa 380,0 foizni tashkil etgan (1-jadvalga qarang).

### 1-jadval

#### Agrosanoat majmuida qishloq xo‘jaligi korxonalarini turli tabiiy xavf-xatarlardan sug‘urtalash ko‘rsatkichlari tahlili (2012-2021 yillar)<sup>10</sup>

Yillar	Sug‘urta shartnomalari soni	Sug‘urta javobgarligi (mln.so‘m)	Sug‘urta mukofotlari tushumi (mln.so‘m)	To‘langan sug‘urta tovonni (mln.so‘m)	Moliyaviy jihatdan zararlilik darajasi, % da
2012	37 443	608 121,1	8 590,9	2 934,2	34,1
2013	25 429	683 868,4	9 672,3	2 798,2	28,9
2014	28 291	1 188 823,5	13 263,4	4 901,6	36,9
2015	33 960	1 350 386,1	18 862,7	7 777,0	41,2
2016	58 048	1 917 389,7	45 609,3	15 441,2	33,8
2017	53 658	1 928 357,9	37 041,3	73 864,4	199,4
2018	58 561,0	3 017 441,0	58 927,9	46 081,5	78,1
2019	100 640,0	6 636 621,0	120 359,1	77 283,3	64,2
2020	11 180	1 602 156,0	57 598,6	44 683,9	77,5
2021	405	192 126,0	2 058,1	7 819,7	380,0
<b>2021 yilni 2012 yildan farqi (+;-)</b>	-37 038	-415 995,1	-6532,8	4 885,5	-

Muallif fikricha, “O‘zagrosug‘urta” AJ qishloq xo‘jaligini sug‘urtalash faoliyatida o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni samarali ijrosini ta‘minlash uchun sug‘urta tariflarini pasaytirish, sug‘urtlanuvchilarga imtiyozli sug‘urta xizmatlarini taqdim etish orqali faoliyat samaradorligini oshirish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.06.2019 yildagi “Paxta xom ashyosi va boshqoli don ekinlarining bo‘lg‘usi hosilini sug‘urtalash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” gi 505-sonli qarori hamda “O‘zagrosug‘urta” aksiyadorlik jamiyati tomonidan 22.02.2016 yilda DPSK–03/1-28-“Qishloq xo‘jalik korxonalarining bo‘lg‘usi paxta ekinidan kam hosil olishi natijasida ko‘radigan moliyaviy zararini sug‘urtalash qoidalari” ishlab chiqilgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda ba‘zi texnogen tushdagi xavf-xatarlar, kasallik turlari va ayrim zararkunandalarning turlari aks etmaganligi hamda respublikamiz qishloq xo‘jaligida aynan shu tushdagi tabiiy ofatlar va kasalliklarning uchrab turishiga tadqiqotlarimiz natijasida guvoh bo‘ldik. Paxta ekini hosilini sug‘urtalash bo‘yicha tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga va shartnomalarga o‘zgartirish kiritish maqsadga muvofiq.

Agrosanoat majmuida paxta hosilini sug‘urtalash holatini tahliliy jihatdan ko‘radigan bo‘lsak, 2010 yilda fermer xo‘jaliklari tomonidan 2388,7 mln.so‘m sug‘urta mukofotlari to‘lab berilgan bo‘lib, shu yili tabiiy ofatlar va boshqa turdagi

<sup>10</sup> “O‘zagrosug‘urta” AJ ning tegishli yillar bo‘yicha statistik ma‘lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tuzilgan.

hodisalar natijasida ko‘rilgan zararni qoplab berish maqsadida 840,0 mln. so‘m sug‘urta to‘lab berilgan. Paxta ekini hosilidan ko‘rilgan zararni qoplash maqsadida to‘lab berilgan eng yuqori zarar darajasi 2018 yilda amalga oshirilgan bo‘lib, sug‘urta mukofotiga nisbatan 147 foizni tashkil etgan. 2021 yil holatiga kelib sug‘urta mukofotlari hajmi keskin darajada tushdi, ya‘ni 400,0 mln. so‘mlik sug‘urta mukofotlari tushumi amalga oshirilgan bo‘lib, ko‘rilgan zararni qoplash maqsadida 3499,0 mln. so‘m sug‘urta to‘lab berilgan.

Aholimizning asosiy oziq-ovqat mahsuli hisoblangan g‘alla hosilini sug‘urtalash holatini 2011-2022 yillar kesimida tahliliy jihatdan ko‘radigan bo‘lsak, 2011 yilda fermer xo‘jaliklari tomonidan g‘alla hosilini sug‘urtalash maqsadida 1853,0 mln. so‘m sug‘urta mukofotlari to‘lab berilgan. 2019 yilda sug‘urta mukofotlari to‘lovi yillar kesimida eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lib, 57084,0 mln. so‘mni tashkil etgan, biroq, 2021 yilga kelib sug‘urta mukofotlari tushumi amalga oshirilmagan. Bu fermer xo‘jaliklari bilan sug‘urta tashkilotlari o‘rtasida shartnomaviy munosabatlar samarali tashkil etilmaganidan dalolat beradi.

Istisno tariqasida olib borilgan ilmiy-tadqiqotlardan kelib chiqib, amaldagi DPSK-03/1-37-“Qishloq xo‘jalik hayvonlarini barcha sug‘urta tavakkalchiliklaridan ixtiyoriy sug‘urta qilish qoidalari” ga o‘zgartirish kiritish lozimligi, xususan yirik shoxli mol, qo‘y, echki va tuyalar kasalliklari hamda otlar kasalligi bo‘yicha 20 ta kasallik turlarini hisobga olgan holda kiritish maqsadga muvofiq.

Agrosanoat majmui tarmoqlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi xo‘jaliklarning iqlim o‘zgarishi natijasida ekinlar hosildorligiga ta‘sir etuvchi omillarning ortib borishi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hosili kamayishiga yoki kutilgan hosilni olish imkoniyatining pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bilan birga, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq ob-havonining o‘zgarishi ta‘sirida turli zararkunanda va hashoratlarning ham ekinlar hosiliga ta‘siri ortib bormoqda.

Agrar tarmoqda qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini yetishtirishda kutilmagan xavf-xatarlarni inobatga olgan holda sug‘urtalashni xalqaro darajada tashkil etishda o‘ziga xos muammolarni hal etish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Shu bilan birga, agrar tarmoq infratuzilmasi va sug‘urtaviy himoyalashni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, yirik shoxli qoramollarni respublika bo‘yicha nafas olish kasalliklari va xazm qilish a‘zolari kasalliklaridan o‘lganlar soni boshqa kasalliklarga nisbatan yuqoriligi bilan ajralib turadi. Aynan, yirik shoxli qoramollar ushbu kasalliklardan sug‘urtaviy himoya qilishga e‘tiborni yanada oshirish maqsadga muvofiqdir. Fikrimizcha, agrar tarmoq infratuzilmasi va sug‘urtaviy himoyalash mexanizmini takomillashtirish maqsadida quyidagi muammolarni hisobga olish zarur:

qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini sug‘urtalashda rivojlangan davlatlar tajribasi to‘liq o‘rganilmaganligi hamda hosil sug‘urtasida sug‘urtalanuvchi mijozlarning iqtisodiy va huquqiy savodxonligi yetarli emasligi;

qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini yetishtirishda mavjud xavf-xatarlar va tavakkalchiliklarni to‘liq o‘rganilmaganligi hamda sug‘urtalashning tashkiliy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish borasida chora-tadbirlar izchil davom ettirilayotganligi;

barcha turdagi qishloq xo‘jaligi ekinlarining turli kasallik va zararkunandalarga qarshi ta‘sirini oldini olish va ularga qarshi kurashish chora-tadbirlarining o‘z vaqtida

o'tkazilmasligi yoki sug'urta shartnomalarida to'liq kasallik va boshqa ta'sir etuvchi omillar o'z aksini topmaganligi;

qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini sug'urtalashda shartnomaviy munosabatlarda tomonlarning huquq va majburiyatlari yuzasidan o'zaro nizolarning o'z vaqtida bartaraf etilmaslik holatlarining mavjudligi;

qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini sug'urtalashda qayta sug'urtalash mexanizmining to'liq shakllanmaganligi va bu borada tashkiliy-huquqiy bazani takomillashtirib borish zaruriyati ushbu masalani dolzarbligini aks ettirmoqda.

Dissertatsiyaning «**Agrosanoat majmui korxonolari faoliyatini sug'urtalash metodologiyasini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari**» deb nomlangan to'rtinchi bobida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 yanvardagi PQ-23-sonli "Paxta xom ashyosi yetishtiruvchilar faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga ko'ra, qishloq xo'jaligi vazirligi davlat-xususiy sheriklik asosida paxta-to'qimachilik klasterlarini jalb etgan holda, ularning mablag'lari hisobidan uchuvchisiz uchadigan apparatlarni xorijdan olib kelish va vazirlik huzuridagi Qishloq xo'jaligida xizmatlar ko'rsatish agentligi va uning hududiy bo'linmalari orqali qishloq xo'jaligi korxonalariga xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish masalalari belgilab berildi.

Global iqlim o'zgarishlarining ortib borishi, bugungi kunga kelib, agrar tarmoq faoliyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Shu jihatdan, qishloq xo'jalik ekinlaridan paxta va g'alla hosili sug'urtasi, chorva hayvonlari sug'urtasi hamda agrar tarmoqda faoliyat yuritayotgan qishloq xo'jaligi korxonalarining tadbirkorlik xavfini sug'urtalash bo'yicha monitoring ishlarini tashkil qilish muhim ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jaligi ekinlari hisoblangan paxta va g'alla maydonlari hosilini inson omilidan foydalangan holda doimiy kuzatish iqtisodiy jihatdan xarajatlarning ortishiga olib keladi. Shu bois, bugungi kunda dolzarb muammolardan biri ekin maydonlari holatini va agrotexnik tadbirlarga rioya qilinishini monitoring qilishda agronom mutaxassislarni yollash orqali sug'urta hodisalari natijasida ko'riladigan zararlar miqdorini kamaytirish maqsadida joriy qilinadi. Olib borgan tadqiqotlarimiz davomida agrosanoat majmui korxonolari faoliyatini sug'urtalashni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari borasida raqamli GAT (geo axborot tizimi) texnologiyalaridan foydalanish asosida qator ishlar amalga oshirildi. Tadqiqot davomida GAT ni joriy etish borasida bizga eng qulay dastur sifatida Esri kompaniyasiga tegishli bo'lgan ArcGIS dasturi tanlab olindi.

Ushbu dastur hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda bir qancha sohalarda ishlatilib kelinmoqda va mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar asosida qishloq xo'jaligini sug'urtalash tizimini rivojlantirishda ushbu dasturning imkoniyatlari yuqori hisoblanadi. Raqamli GAT texnologiyalari orqali yaratilgan elektron raqamli ko'rinishdagi xaritalarning eng muhim afzalliklaridan biri shundaki, dronlar orqali bir vaqtning o'zida respublikaning istalgan hududidagi juda katta maydonning masofadan zondlash orqali olingan aerokosmik suratlar va ular orqali qishloq xo'jaligi maydoni to'g'risidagi ma'lumotlarni to'liq qamrab olishi, ularni tahlil qilish va qayta ishlash imkonini beradi.

Tadqiqot davomida yana bir usul sifatida kosmik suratlar yordamida maydoni o‘rtacha 10 ming gektar bo‘lgan qishloq xo‘jaligi ekin yerlarini monitoring qilishda Sentinel 2 kosmik suratlardan foydalanish ham maqsadga muvofiqligi o‘rganildi. Sentinel 2 kosmik suratlari aktualligi hamda 10 mega piksel aniqlikda bo‘lganligi bilan joydagi ekin ekilganligini ko‘rish uchun qulay hisoblanadi hamda GAT dasturlari yordamida geografik axborot bazasini shakllantirishni bir necha barobarga tezlashtiradi. Bu usul joydagi ekinlarning zararlanish darajasini ko‘rish imkoniyatini bermasdan yirik (1000-500 000 gektar) maydonlarning kosmik suratlarini har 10 kunlik ma‘lumotini olish imkonini berishi bilan izohlanadi.

Demak, qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘urtalashda ekin turidan tashqari ekin maydonlarining joylashgan hududini ham e‘tiborga olish talab etadi. Qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘urtalashda geografik axborot tizimiga o‘tishda eng asosiysi sug‘urta qilingan yerdan foydalanuvchilarning ma‘lumotlar bazasini shakllantirish hisoblanib tadqiqot ishimizda bu borada ham izlanishlar olib borildi.



### **5-rasm. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini raqamli GAT texnologiyalari asosida monitoring qilish va xavfsiz ma‘lumotlar bazasini shakllantirishda ichki tizim tuzilishi<sup>11</sup>**

Tadqiqotimiz davomida qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘urtalagan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning hamda ekin maydonlari va ekin turlari bo‘yicha ma‘lumotlar bazasi yaratilib tizimlashtirildi. Ma‘lumotlar bazasi ko‘p sonli foydalanuvchilarga mo‘ljallangan va markazlashgan bo‘lib, har qanday raqamlashtirilgan ma‘lumotlarni saqlash, tahrirlash ishlarini bajarish uchun mo‘ljallangan. Bundan tashqari, axborot xavfsizligini ta‘minlash maqsadida operatorlarning ishchi kompyuterlarida raqamli ma‘lumotlar saqlanmasligi ko‘zda tutilgan (5-rasmga qarang).

“O‘zbekkosmos” agentligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi birgalikda faoliyat yuritishlari, mamlakatning strategik tarmog‘i bo‘lgan qishloq xo‘jaligini ahvoli to‘g‘risida axborot almashishni yo‘lga qo‘yish muhim masalalardan

<sup>11</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

biridir. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi huzurida “O‘zagrosug‘urta” AJ bilan kelishilgan holda ekinlar hosilini sug‘urta qilish, xavflarni baholash, ekinlarga yetkazilgan zararlarni aniqlash maqsadida monitoring ishlarini tashkil qilishda qishloq xo‘jaligi sug‘urtasi bo‘yicha ekspertlar (GAT texnologlari, agronomlar, veterinarlar) ni tayyorlash o‘quv kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Sug‘urta kompaniyasi faoliyatida aktuar hisoblar muhim rol o‘ynaydi. Kompaniyaning sug‘urta bozoridagi moliyaviy holati va barqarorligi shunga bog‘liq. Sug‘urta mukofotlari orqali kompaniyaning sug‘urta fondi shakllantiriladi. Aktuar hisoblar yordamida har bir sug‘urtalanuvchining sug‘urta fondini shakllantirishdagi ulushi aniqlanadi.

Muayyan ob‘ektning sug‘urtasi uchun kerak bo‘ladigan sarf-harajatlarni aniqlash sug‘urta kompaniyasi faoliyatida o‘ta muhim va ma‘suliyatli ishdir. Aktuar hisoblarning muhim masalasi - sug‘urta tarifi va uning strukturasi aniqlashdir. U sug‘urtalanuvchiga ko‘rsatiladigan sug‘urta xizmati narxini hisoblash imkonini beradi va sug‘urta faoliyatini, talofatsiz yuritishning asosini tashkil etadi. Chorvachilik bo‘yicha aktuar hisoblash natijalarini 2-jadvalda ko‘rish mumkin.

## 2-jadval

### Hududlar kesimida sug‘urta summasining talofat darajasi va baholangan brutto va netto stavkasi<sup>12</sup>

Hududlar	Yillar						O‘rtacha sug‘urta summasining talofat darajasi	Standart kvadrat chetlanish	Netto stavka (ishonch ehtimoli 0,954)	Brutto stavka	Muallif taklifi
	2016	2017	2018	2019	2020	2021					
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1,4	1,4	2,5	1,2	1,4	0,3	1,4	0,7	2,7519	3,9	4,0
Andijon	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0000	0,0	1,4
Buxoro	0,8	0,1	0,2	0,3	0,0	11,1	2,1	4,4	10,9456	15,6	6,0
Jizzax	0,1	>30	7,1	0,0	0,0	1,6	13,4	28,7	>30	>30	8,0
Qashqadaryo	0,3	0,2	0,1	1,7	1,0	0,0	0,5	0,7	1,8723	2,7	4,0
Navoiy	0,1	0,1	1,1	0,0	25,0	0,0	4,4	10,1	24,6024	>30	8,0
Namangan	0,7	1,3	0,0	0,0	>30	-	>30	>30	>30	>30	8,0
Samarqand	0,0	0,6	0,3	0,0	0,0	0,0	0,2	0,3	0,6709	1,0	1,4
Surxondaryo	0,0	0,3	0,0	9,1	0,0	0,0	1,6	3,7	8,9435	12,8	6
Sirdaryo	0,0	0,0	0,0	-	-	-	0,0	0,0	0,0000	0,0	1,4
Toshkent	1,3	2,9	0,0	-	0,9	-	1,3	1,2	3,6813	5,3	4,0
Farg‘ona	0,3	0,0	0,0	0,0	0,0	-	0,1	0,1	0,2782	0,4	1,4
Xorazm	1,4	0,3	0,1	0,0	0,0	0,0	0,3	0,5	1,3819	2,0	2,0
Respublika bo‘yicha	0,6	0,7	0,3	0,8	0,8	0,7	0,6	0,2	1,0	1,4	4,3


Sug‘urta kompaniyalarning faoliyatini ifodalovchi va baholovchi ko‘rsatkichlardan biri moliyaviy barqarorlik koeffitsienti bo‘lib, quyidagi formula asosida hisoblanadi.

<sup>12</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

$$Kf = t \sqrt{\frac{1-q}{Nq}}$$

Bu nisbat qanchalik past bo'lsa, moliyaviy holat shunchalik barqaror bo'ladi. Yuqoridigalar asosida hisoblangan hududlar kesimida moliyaviy barqarorlik koeffitsienti qiymatiga ko'ra, chorvachilik bo'yicha sug'urta tashkiloti faoliyati Andijon, Sirdaryo, Farg'ona, Xorazm, Surxondaryo, Samarqand, Namangan, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida nisbatan barqaror ekanligi aniqlandi. Toshkent, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax viloyatlarida esa sug'urta tashkiloti faoliyatida yuqori talofat risklari mavjudligini ifodalaydi.

Tahlilimiz natijalari shuni ifodalaydiki, sug'urta summasining talofat darajasi past bo'lgan hududlarda ya'ni Andijon, Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona va Xorazmda netto foiz stavkasini 3 foizdan kam qilib belgilanishini taklif qilamiz. Bunday hududlar bo'yicha tabaqalashgan holda yondashuvi sug'urta kompaniyasiga ham mijozga ham qulaylik tug'diradi. Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, taklif qilayotgan tarif stavkamiz bo'yicha hududlarda tabaqalashgan holda sug'urta faoliyatining olib borilishi ham sug'urtalanuvchilar uchun ham sug'urta kompaniyasi uchun ham samaralidir.



### 6-rasm. Respublika bo'yicha amaldagi tarif stavkasi va taklif qilinayotgan tarif stavkasi bo'yicha ko'rsatkichlar<sup>13</sup>

Taklif qilayotgan tarif stavkamiz bo'yicha hisoblangan sug'urta mukofoti amaldagi shartnomalar soni va sug'urta puli uchun 320387,7 ming so'mni tashkil etadi. Bu esa amaldagi sug'urta mukofotidan 80 foizga ortiq. Shartnomalar soni bo'yicha taklif qilayotgan tarif stavka qo'llanilsa, 25 taga oshishi kutiladi. Bu esa sug'urta faoliyatida qamrov darajasini va o'z navbatida sug'urta kompaniyasining daromadlari oshini ta'minlaydi. Modelga izoh sifatida shuni aytish mumkinki, agar respublika miqyosida foiz stavkasi bir foizga kamaytirilsa, shartnomalar soni mos ravishda 5 taga ortadi. Har bir shartnomada o'rtacha 30 ta chorva mollari kiritilganligini hisobga olgan holda, fermer xo'jaliklarida sug'urtalangan chorva mollari xajmini 150 taga yoki 2,5 % ga oshirish mumkin (6-rasmga qarang).

<sup>13</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Shuningdek, talofat darajasi yuqori bo'lgan hududlar - Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Navoiy, Namangan, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro va Toshkent viloyatlarida tarif stavkasiga qo'shimcha mos ravishda ustama yoki franshiza qo'llash mumkinligini ta'kidlab o'tamiz. Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, har bir sug'urta mukofoti tushumining sug'urta puliga nisbati bir birlikka kamaytirilsa, sug'urta shartnomalar soni mos ravishda 5 taga, fermer xo'jaliklarida sug'urtalangan chorva mollari xajmini esa 2,5 % ga oshirish mumkin.

Hududlar kesimida moliyaviy barqarorlik koeffitsienti qiymatiga ko'ra, paxta yetishtirish bo'yicha sug'urta tashkiloti faoliyati yuqori talofat risklari mavjudligi aniqlandi. Shu bilan birga 2020 yilda 2019 yilga nisbatan sug'urta summasining talofat koeffitsientining o'zgarishi va sug'urta summolari miqdori ta'sirida o'rtacha sug'urta summasining talofat darajasi 74% ga kamaygan. "O'zagrosug'urta" AJ faoliyati "moliyaviy barqarorlik" va "talofat darajasi" mezonlari bo'yicha baholanib, hududlar kesimida chorvachilik va paxta bo'yicha sug'urta tarifi stavkasini «imtiyozli» va «franshiza» shakllarda qo'llash mumkinligi ilmiy asoslab berildi.

Agrosanoat majmui korxonalarini sug'urtalash tizimi rivojlanishi o'rganish va istiqbolli rivojlanishini prognoz qilish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda modellarni tuzishda 2011-2021 yillarda respublikaning 13 ta hududi (Toshkent shahridan tashqari) bo'yicha ma'lumotlardan foydalanildi.

### 3-jadval

#### Qishloq xo'jaligini sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofotlari tushumi prognoz parametrlari, mlrd. so'm (2021 y. narxlarida)<sup>14</sup>

Senariy	Model tenglamasi	Prognoz ko'rsatkichi					
		2023 y.	2024 y.	2025 y.	2026 y.	2027 y.	2028 y.
Pessimistik	$x_t = 0,473x_{t-1} + 5,320x_{reg} + e_t$	911,6	976,2	1008,3	1023,9	1031,3	1034,8
Realistik	$x_t = 11,315 + 2,187x_{t-1} - 1,391x_{t-2} + 0,2x_{t-3} + 5,333x_{reg} - e_{t-1} + e_t$	965,3	1160,0	1369,6	1591,3	1819,5	2046,5
Optimistik	$x_t = 10,988 + 1,191x_{t-1} - 0,126x_{t-2} + 0,027x_{t-3} + 0,067x_{t-4} + 0,045x_{t-5} + 0,226x_{t-6} + 5,335x_{reg} + e_t$	961,8	1370,1	1915,5	2448,5	2813,9	3222,8

Izoh:  $x_{reg}$  - binar sifat o'zgaruvchilari


Sug'urta tushumlarining 2017-2021 yillardagi o'zgarish dinamikasiga qaralsa, 2020 yilda keskin o'sish kuzatilgan bo'lib, 2021 yilda yana avvalgi yillardagi o'sish tendensiyasiga qaytgan. Buni koronavirus pandemiyasining ta'siri sifatida qarash mumkin. Shuni inobatga olib, vaqt o'lchovlariga sifat parametrlarini (dummy variable) birlashtirish orqali turli iqtisodiy shoklarning prognozga salbiy ta'sirlarining oldi olindi (3-jadvalga qarang).

<sup>14</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

1-senariy bo'yicha sug'urta mukofotlari tushumi sekin o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 2021 yilga nisbatan 2026 yilda 1,76 barobar, 2028 yilga kelib esa 1,78 barobarga ortadi.

2-senariy bo'yicha sug'urta mukofotlari tushumi o'rtacha o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, tushum hajmi 2021 yilga nisbatan 2026 yilda 2,74 barobar, 2028 yilga kelib esa 3,53 barobarga ortadi.

3-senariy bo'yicha sug'urta mukofotlari tushumi jadal o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, tushum hajmi 2021 yilga nisbatan 2026 yilda 4,22 barobar, 2028 yilga kelib esa 5,55 barobarga ortadi (7-rasmga qarang).



**7-rasm. Sug'urta mukofotlari tushumining senariy bo'yicha prognoz parametrlari, mlrd.so'm<sup>15</sup>**

Insoniyatni global darajada tahlikaga solayotgan xavf-xatarlardan biri sifatida iqlim o'zgarishining tezlashuvi sodir bo'layotganligi ayni haqiqat. Global iqlim o'zgarishi bugungi kunda bevosita shaxs, jamiyat va davlat darajasida ham kuchli va sezilarli ta'sir ko'rsatishda davom etishi, barcha mamlakatlarda birdek joriy va kelajakdagi iqlim xavf-xatarlariga moslashish hamda iqlimiy xavf-xatralardan ko'riladigan moliyaviy zararlarni qoplash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish dolzarbligi bilan muhim ahamiyatga ega. Darhaqiqat, iqlim o'zgarishi natijasida sodir bo'layotgan yirik miqyosdagi tabiiy va texnogen ofatlar bilan bog'liq moliyaviy xarajatlar ortib borishi sababli, har bir mamlakatning barqaror rivojlanishi ma'lum bir iqlimiy tahdidlar ostida bo'ladi.

Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tabiiy ofatlarning tez-tez sodir bo'lish hamda ta'sir ko'lamining ortishi bevosita oziq-ovqat xavfsizligi, chuchuk suv resurslari kamayishi insoniyatning yashash va iste'mol xavfsizligiga ta'sir qiladi. Shu bois, hozirgi hamda kelajakdagi iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavf-xatarlarni boshqarish uchun istiqbolli sug'urta xizmatlarini keng joriy etishga qaratilgan ilmiy va amaliy yondashuvni talab qiladi. Indeksga asoslangan sug'urtalash. Bu fermerlarga zararining haqiqiy miqdorini baholashdan ko'ra indeksdagi o'zgarishlar (odatda ob-havo bilan bog'liq, lekin, boshqa omillarni ham o'z ichiga olishi mumkin) asosida to'laydi. Indeks hosil uchun o'lchov sifatida ishlaydi va shuning uchun indeksdagi o'zgarishlar hosildagi o'zgarishlarni aks ettirishi kerak.

<sup>15</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Dissertatsiya tadqiqotlarimizda ob-havo bilan bog'liq indeksli sug'urtalashni tadqiqot ob'ektlarimiz bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Farg'ona va Toshkent viloyatlari misolida joriy etish bo'yicha tahliliy ishlarni olib bordik. Bunda kosmik suratlar asosida olingan iqlim parametrlari bo'yicha hisoblangan omillar-indeksi tahlil qilindi. Tahlil qilish jarayonida zamonaviy geoaxborot tizimlari (GAT) texnologiyalaridan foydalanildi.

2001-2010 va 2011-2020 yillardagi o'rtacha qiymatlar bo'yicha qurg'oqchilik indeksi (QI). Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha Dasturi (UNEP) qurg'oqchilik indeksi bo'yicha qurg'oqchil yerlarni belgilaydi, bu o'rtacha yillik yog'ingarchilik va potensial evapotranspiratsiya o'rtasidagi nisbat hisoblanadi.

Dastlab har bir alohida omil uchun qiymatlar intervalidan kelib chiqib baholash shkalalari ishlab chiqildi. Bunda omilning qiymatlariga ko'ra 5 ta sinfga ajratilib, ular uchun hisoblash ballari belgilandi (4-jadvalga qarang).

#### 4-jadval

#### Indeks sug'urtasini joriy etish bo'yicha baholash shkalalari<sup>16</sup>

Indeks		Qurg'oqchilik	Kuchli yomg'irli kunlar soni	Muzlama kunlar soni	Kuchli issiq bo'lgan kunlar soni
Daraja	Ball				
Xavfsiz	1	Qurg'oqchil emas	0-9,9	0-39,9	0-24,9
Kuchsiz xavfli	2	Quruq nam yerlar	10-19,9	40-79,9	25-49,9
O'rta xavfli	3	Yarim qurg'oqchil	20-29,9	80-119,9	50-74,9
Kuchli xavfli	4	Qurg'oqchil	30-39,9	120-159,9	75-99,9
Juda kuchli xavfli	5	Giper qurg'oqchil	>60	>160	>100

So'ngra olingan ma'lumotlar asosida har bir omil bo'yicha viloyatlarda iqlimga asoslangan indekslar bo'yicha xavflilik darajasini aniqlash bo'yicha tahlil ishlari olib borildi. Har bir indeks bo'yicha ballar aniqlangach keyingi bosqichda viloyatlar uchun umumiy indeks ballari va darajasi hisoblandi. Ushbu tahlil jarayoni asosidagi baholash natijalari 5-jadvalda keltirilgan.

#### 5-jadval

#### Umumiy indeks ballari bo'yicha baholash natijalari<sup>17</sup>

Indeks	Qashqadaryo viloyati	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Farg'ona viloyati	Toshkent viloyati
Qurg'oqchilik	Kuchli (4 ball)	Juda kuchli (5 ball)	O'rta (3 ball)	Kuchsiz (2 ball)
Kuchli yomg'irlar	Kuchsiz (2 ball)	Xavfsiz (1 ball)	Kuchsiz (2 ball)	O'rta (3 ball)
Muzlamali kunlar	O'rta (3 ball)	Kuchli (4 ball)	Kuchsiz (2 ball)	Kuchli (4 ball)
Issiqlik stressi	O'rta (3 ball)	Kuchli (4 ball)	O'rta (3 ball)	Kuchsiz (2 ball)
<b>Umumiy</b>	<b>O'rta (12 ball)</b>	<b>Kuchli (14 ball)</b>	<b>Kuchsiz (10 ball)</b>	<b>O'rta (11 ball)</b>

<sup>16</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

<sup>17</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Qashqadaryo viloyati uchun ob-havo indeksi omillari asosan o'rta bo'lib, issiqlik stressi va muzlama kunlar omillari bo'yicha o'rta, qurg'oqchilik kuchli va kuchli yomg'irlar bo'yicha kuchsiz daraja xavfiga ega. Qoraqalpog'iston Respublikasida esa ekstremal yog'inli kunlar bo'yicha xavfsiz bo'lib, qolgan barcha omillar kuchli va juda kuchli ekanligini ko'rishimiz mumkin.



**8-rasm. Umumiy xavflilik bo'yicha indeks sug'urataga asoslangan xaritasi<sup>18</sup>**

Farg'ona viloyatida esa boshqacha holat bo'lib, turli omillar asosidagi xatarlar turli darajada. Ekstremal yog'inlar kuchli, muzlamali kunlar kuchsiz va qurg'oqchilik hamda issiqlik stressi omillari bo'yicha o'rtacha darajalar kuzatildi. Toshkent viloyatida ikki omil (qurg'oqchilik va issiqlik stressi) bo'yicha kuchsiz bo'lsa, muzlamali kunlar bo'yicha kuchli va kuchli yomg'irli kunlar) bo'yicha o'rta xavfli darajaga ega.

Alohida omillar bo'yicha ob-havo omillari asosidagi indeksli sug'urta xatarlari hisoblangach, ular umumlashtirib umumiy xatar darajasi keltirib chiqarildi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlari o'rtacha, Qoraqalpog'iston Respublikasi kuchli hamda Farg'ona viloyati kuchsiz darajada indeksli xavf darajasiga ega.

Ob-havo indeksiga asoslangan sug'urtalash xavflarini baholash bo'yicha baholash shkalalari ishlab chiqildi. Bunda har bir alohida indeks va umumiy baholash uchun qiymatlar intervali hamda tegishli ballar aks ettirildi. Ishlab chiqilgan baholash shkalalari asosida tadqiqot ob'ektlari ob-havo indekslari bo'yicha va umumiy xavflar baholandi. Tahlillar yakunida baholash natijalari bo'yicha zamonaviy geoaxborot tizimlari asosidagi sug'urta xavflari aks etgan raqamli xaritalar ishlab chiqildi.

<sup>18</sup> Manba: muallif izlanishlari asosida ArcGIS dasturidan foydalangan holda tuzilgan.

Tadqiqotlar jarayonida ishlab chiqilgan baholash shkalasi va raqamli xaritalar tadqiqot ob'ektlarida ob-havo indeksiga ko'ra sug'urta havflarini aniqlashda samarali vosita sifatida xizmat qildi. Tahlillarda foydalanilgan zamonaviy texnologiyalar va usullar resurs tejamkorligi hamda tekzkorligi namoyon bo'ldi. Xulosa qilib aytish mumkinki, tadqiqotlar jarayonida ob-havo indeksiga asoslangan sug'urtalash bo'yicha xorijiy tajriba o'rganilib, sug'urta xavflarini baholash metodologiyasi tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra tanlab olingan ob'ektlar misolida ob-havo indekslarining alohida omillari bo'yicha baholash ishlari olib borildi.

## XULOSA

Dissertatsiya tadqiqoti doirasida olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Agrosanoat majmui korxonalarini faoliyatini sug'urtalash tizimini samarali rivojlantirish borasida "Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urtalash to'g'risida"gi qonun loyihasi bo'yicha 7 ta bobdan iborat konsepsiya taklif etildi. Konsepsiyada har bir bob bo'yicha taklif etilgan qishloq xo'jaligini sug'urtalash yo'nalishi bo'yicha maqsadlarga erishishning ustuvor vazifalari ketma-ketlikda yoritib berildi. Bu vazifalarning samarali amalga oshirilishi bevosita agrosug'urta faoliyatini istiqbolli rivojlantirish imkoniyatlarini ta'minlab beradi.

2. Agrar tarmoq bevosita iqlimga va tabiiy jarayonga bog'liq bo'lganligi sababli yuqori xavfli tarmoqlardan biri hisoblanadi, shu bois, ushbu tarmoqqa xorijiy investorlarni jalb etish va investorlar uchun sug'urtalash muhiti yaratilmaganligi hamda sug'urta mukofotlarini to'lashda subsidiyalash mexanizmini ishga tushmaganligi sug'urtalash sohasiga keskin ta'sir ko'rsatmoqda. Ilmiy tadqiqotlar asosida aytish joizki, qishloq xo'jaligini sug'urtalash tizimi to'la-to'kis tartibga solinmagan va bu borada qo'llab-quvvatlash mexanizmlari to'liq ishga tushmagan. Shuningdek, qishloq xo'jaligini sug'urtalashning ob'ekti, sub'ekti, shakllari, usullari, mexanizmlarini o'z ichiga olgan tizimli tarkibini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 iyundagi 505-sonli "Paxta xom ashyosi va boshqali don ekinlarining bo'lg'usi hosilini sug'urtalash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori hamda "O'zagrosug'urta" aksiyadorlik jamiyati tomonidan 2016 yil 22 fevralda DPSK-03/1-28-"Qishloq xo'jalik korxonalarining bo'lg'usi paxta ekinidan kam hosil olishi natijasida ko'radigan moliyaviy zararini sug'urtalash qoidalari" ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ba'zi texnogen tUSDagi xavf-xatarlar, kasallik turlari va ayrim zararkunandalar keltirilmaganligi hamda respublikamiz qishloq xo'jaligida aynan shu tUSDagi tabiiy ofatlar va kasalliklar uchrab turishiga tadqiqotlar natijasida guvoh bo'lindi. Paxta ekini hosilini sug'urtalash bo'yicha tegishli me'yoriy-huquqiy hujjat va shartnomalarga o'zgartirish kiritish maqsadga muvofiq.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30 sentyabrdagi 830-sonli qarori hamda "O'zagrosug'urta" aksiyadorlik jamiyati tomonidan 2015 yil 19 avgustda DPSK-03/1-37-"Qishloq xo'jalik hayvonlarini barcha sug'urta tavakkalchiliklaridan ixtiyoriy sug'urta qilish qoidalari" ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ba'zi kasallik turlari keltirilmaganligi va mamlakatimizda chorva

hayvonlarining aynan shu kasalliklardan o'lim holati ortayotganligini kuzatish mumkin. Chorva hayvonlarini barcha sug'urta tavakkalchiliklaridan ixtiyoriy sug'urtalash bo'yicha jamiyat tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlar ko'lamida sug'urtalash qoidalarida ayrim kasalliklar to'liq o'z ifodasini topmaganligiga tadqiqotlar natijasida guvoh bo'lindi. Bugungi kunda chorva hayvonlarini sug'urtalash bo'yicha ushbu hujjatga va tegishli shartnomalarga o'zgartirish kiritish lozim.

5. O'zbekistonda nasldor chorva hayvonlari turli kasallik va tabiiy ofatlar natijasida nobud bo'lish holatlari uchramoqda. Bu borada chorva hayvonlarini sug'urtaviy himoyalashda sug'urta mukofoti to'lovchilarning moliyaviy imkoniyatlari yetishmasligi yoki sug'urta mukofotini to'lashda xohish-istakning pastligi, qolaversa sug'urta mukofotlarini to'lashda subsidiyalash mexanizmining joriy etilmaganligi soha rivojiga ta'sir etmoqda. Bevosita, fermer va dehqon xo'jaliklari chorva hayvonlarini sug'urtalashda subsidiyalash mexanizmini joriy etishni takomillashtirish maqsadga muvofiq.

6. Agrosanoat majmui korxonalarini faoliyatini sug'urtalash holati tahlili keng yoritib berilgan. Agrosug'urta faoliyatidagi mavjud muammolar va sug'urtalanuvchi sub'ektlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq takliflar ilmiy asoslangan. O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui korxonalarini faoliyatini sug'urtalashda davlat ulushiga ega sug'urta tashkiloti yakka holda sug'urta faoliyatini yuritayotganligi, bu sohada raqobatchi sug'urta kompaniyalar jalb etilmayotganligi hamda agrosug'urta faoliyatiga boshqa sug'urta tashkilotlarining qiziqishi pastligi yoritib berilgan. Shu nuqtai nazardan agrosug'urta faoliyatiga boshqa sug'urta tashkilotlarining yangi sug'urta xizmatlari bilan kirib kelishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

7. Agrosug'urta faoliyatida sug'urtalangan qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini tabiiy xavf-xatarlar natijasida ko'rilgan zararlarni tezkorlik bilan aniqlash va monitoring olib borishning samarali mexanizmi mavjud emas. Monitoring ishlarini tashkil etishda raqamli GAT (geografik axborot tizimlari) texnologiyalarini joriy etish asosida agrosug'urta faoliyatida ijobiy qulayliklar bilan bir qatorda tez va xarajatlar miqdorini 25-50 foizgacha tejagan holda monitoring o'tkazish ishlarini bajarish imkoniyatini yaratish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

8. Mamlakatimiz hududlarida ekinlar monitoringi natijalariga ko'ra, tabiiy ofatlar darajalari hududlarda har xil ko'rinishda aks etganligi bo'yicha xaritalar tuzilib, unda 2011 yilga nisbatan 2016 yilda sezilarli darajada o'zgarganligi bevosita 2021 yilda esa 2011 yilga nisbatan tabiiy ofatlar keskin ortganligi hamda qishloq xo'jaligi ekinlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi isbotlandi. Shuningdek, 2021 yilga kelib, ekinlarni tabiiy ofat ta'siriga uchrashining Field Calculator yordamida tabiiy ofatlar darajasi aniqlanganligi, zararlilik darajasi ko'rsatkichlari hisoblangan holda reyting shkalasi asosida baholandi.

9. Agrosug'urta faoliyatida aktuar hisoblardan foydalanish asosida chorva hayvonlarini sug'urtalashda chorva hayvonlarini sug'urtalash bo'yicha mijozlarning yuqori darajada tarqoqligi va qamrov darajasi yetarli emasligi, sug'urta mukofotlari tarkibida ma'muriy xarajatlar ulushini minimallashtirishga to'siqlar mavjudligi isbotlandi. Aktuar hisoblarga tayangan holda hududlar kesimida chorva hayvonlari

uchun tabaqalashgan holda tarif stavkalarini ishlab chiqish sug'urta qamrovi ortishiga sabab bo'ldi. Xususan, Andijon, Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona, Xorazm viloyatlarida sug'urta faoliyati bo'yicha talafot darajasi kamroq bo'lganligi bois bu hududlarda foiz stavkalarini imtiyozli qilib belgilash taklif qilindi. Shuningdek, talafot darajasi yuqori bo'lgan hududlar – Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax, Navoiy, Namangan, Buxoro va Toshkent viloyatlarida tarif stavkasiga qo'shimcha mos ravishda ustama yoki franshiza qo'llash mumkin. Har bir sug'urta mukofoti tushumi sug'urta puliga nisbati bir birlikka kamaytirilsa, sug'urta shartnomalari soni mos ravishda 5 taga, fermer xo'jaliklarida sug'urtalangan chorva mollari hajmini esa 2,5 % ga oshirish mumkin.

10. Respublikamiz hududlari kesimida sug'urta faoliyatida paxta yetishtirish holati bo'yicha yuqori talafot risklari mavjudligi aniqlandi. Shu bilan birga 2020 yilda 2019 yilga nisbatan sug'urta summasining talafot koeffitsienti o'zgarishi va sug'urta tovonlari summasi talafot darajasiga bog'liqligi isbotlandi. "O'zagrosug'urta" AJ faoliyati "moliyaviy barqarorlik" va "talafot darajasi" mezonlari bo'yicha baholanib, hududlar kesimida chorvachilik va paxta bo'yicha sug'urta tarifi stavkasini "imtiyozli", "ustama yoki franshiza" shakllarida qo'llash mumkinligi ilmiy asoslab berildi.

11. Chorvachilik agrar tarmoqning muhim strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Biroq bugungi kunda chorvachilik sohasida rentabellik tushib ketganligi, chorva yemlari narxi ortib borishi, yaylovlardagi o'simliklarning yildan-yilga kamayishi oqibati oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni yuzaga keltirmoqda. Chorva hayvonlarini sug'urtalash holatini baholash ko'rsatkichlari bir tizimga solinib, chorva hayvonlarini sug'urtalash ko'rsatkichlarini ekonometrik modellar asosida prognozlash algoritmi ishlab chiqildi, ARIMA modelidan foydalangan holda 2028 yilga rivojlanish bo'yicha 3 xil senariy, ya'ni pessimistik, optimistik va realistik senariy ishlab chiqildi. Modellar asosidagi hisob-kitoblarga ko'ra, chorva o'limi va chorva hayvonlarining kasallanishi hamda tabiiy ofatlardan zararlanish holatlarida sug'urtalashga bevosita bog'liq ehtimol yuqoriligini hisobga olgan holda sug'urta tariflarini tabaqalashtirish taklif etildi.

12. Paxta bo'yicha sug'urta faoliyatini amalga oshirishda, xususan, sug'urta tariflarini belgilashda hududlarining agro-iqlimiy xususiyatlarini e'tiborga olish lozim. Yog'inlar miqdori hisoblangan chegara qiymat (20,6 mm.) dan kam bo'lgan Buxoro, Navoiy, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida sug'urta tushumlari yog'inlar miqdori ortishi bilan kamaysa, tariflarning o'zgarishi esa tushumlar ortishiga respublikaning boshqa hududlariga nisbatan kamroq ta'sir ko'rsatadi. Shularni e'tiborga olib, paxta hosili bo'yicha sug'urta tariflarini hududlar kesimida tabaqalashtirish, bunda hududlarni ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiq.

13. Ob-havo indeksiga asoslangan sug'urtalash xavflarini baholash bo'yicha shkalalar ishlab chiqildi. Bunda har bir alohida indeks va umumiy baholash uchun qiymatlar intervali hamda tegishli ballar aks ettirildi. Ishlab chiqilgan baholash shkalalari asosida tadqiqot ob'ektlari ob-havo indekslari bo'yicha va umumiy xavflar baholandi. Tahlillar yakunida baholash natijalari bo'yicha zamonaviy geoaxborot tizimlari asosidagi sug'urta xavflari aks etgan raqamli xaritalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotlar jarayonida ishlab chiqilgan baholash shkalasi va raqamli xaritalar tadqiqot ob'ektlarida ob-havo indeksiga ko'ra sug'urta xavflarini aniqlashda samarali vosita sifatida xizmat qildi. Tahlillarda foydalanilgan zamonaviy texnologiya va usullarning resurs tejamkorligi hamda tezkorligi namoyon bo'ldi.

14. Agrosanoat majmui korxonalarini faoliyatini sug'urtalash metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha taklif etilgan usul va tavsiyalar mamlakatimizda agrosug'urta faoliyatini ustuvor darajada rivojlantirishning istiqbolli strategiyalarini ishlab chiqish, tizimni transformatsiya qilish, agrosug'urta sohasida xalqaro darajada biznes hamkorlikni shakllantirish hamda qayta va o'zaro sug'urtalash faoliyatida integratsiyalashuv jarayoni jadallashuvi, agrosug'urta faoliyatida ishonchli va sifatli sug'urta xizmatlarini ko'rsatish qamrovini oshirish imkonini beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/10.12.2019.I.16.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**ЯДГАРОВ АКРАМ АКБАРОВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ СТРАХОВАНИЯ  
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО  
КОМПЛЕКСА**

**08.00.07 - Финансы, денежное обращение и кредит**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук (DSc)**

**Ташкент – 2023**

**Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована под номером B2023.1.DSc/Iqt458 в Высшей аттестационной комиссии.**

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) и на информационно-образовательном портале "Ziyonet" ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный консультант:**

**Бурханов Актам Усманович**

доктор экономических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Гулямов Саидахрор Саидахмедович**

академик, доктор экономических наук, профессор

**Кузиева Наргиза Рамазановна**

доктор экономических наук, профессор

**Умаров Сунатулла Абдуллаевич**

доктор экономических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Ташкентский государственный аграрный университет**

Защита диссертации состоится \_\_\_\_\_ в час «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 г. на заседании Научного совета DSc.3/10.12.2019.I.16.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. (Адрес: 100066, г. Ташкент, улица Ислама Каримова, 49, Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирована № \_\_\_\_\_). Адрес: 100066, г. Ташкент, улица Ислама Каримова, дом 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года.

(реестр протокола рассылка № \_\_\_\_\_ от «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года)

**М.П. Эшов**

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

**У.В. Гафуров**

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

**С.К. Худойкулов**

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (Аннотации диссертации доктора экономических наук (DSc))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Возрастающий риск глобальных климатических изменений, ежегодный рост финансовых потерь в результате техногенных и неожиданных природных катастроф, возникновение проблем безопасности пищевых продуктов привлекают внимание мировой общественности и исследователей, угрожают международным страховым организациям. В результате серьезного воздействия глобального изменения климата на сельскохозяйственную деятельность возникают различные проблемы, связанные с продовольственной безопасностью населения. В частности, «в 2021 году глобальные страховщики покрыли 105 миллиардов долларов США убытков, понесенных в связи с возникновением рисков, связанных с изменением климата»<sup>1</sup>. Смягчение негативного влияния стихийных бедствий в агропромышленном комплексе на продовольственную безопасность и устранение потерь сельскохозяйственных культур и скота требует продолжения научных исследований в области агрострахования.

В условиях усиления глобальной конкуренции в мире проводится ряд исследований, направленных на эффективное использование страховой деятельности в устойчивом развитии национальной экономики стран. Среди наиболее актуальных исследований следует выделить: страхование от событий, связанных с увеличением рисков из-за изменения климата; снижение урожайности сельскохозяйственных культур в результате экстремальных и техногенных явлений; сокращение пастбищ и сокращение кормовой базы скота; разработка методологических основ защиты законных интересов страховой деятельности предприятий агропромышленного комплекса; ведение актуарного учета при разработке дифференцированных тарифов на страховые услуги, оказываемые в сфере агропромышленного комплекса; внедрение цифровых технологий для снижения затрат страхования сельскохозяйственных культур в агропромышленном комплексе; изучение методологических аспектов индексного страхования в страховании предприятий агропромышленного комплекса; стратегическое развитие страхования предприятий агропромышленного комплекса.

В соответствии с 30-й целью стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены задачи по сосредоточению внимания на вопросах «расширения объемов государственной поддержки сельского хозяйства и внедрения новых механизмов агрострахования»<sup>2</sup>. В связи с этим, возникает настоятельная необходимость проведения научных исследований по созданию гибкой к меняющимся условиям страховой деятельности, диверсифицированию ее в соответствии с конъюнктурой рынка и повышению ее конкурентоспособности. Последовательное внедрение инновационных технологий в агропромышленный комплекс в рамках «Умного сельского

---

<sup>1</sup> Swiss Re Institute. <https://www.swissre.com/media/news-releases/nr-20211214-sigma-full-year-2021-preliminary-natcat-loss-estimates.html>.

<sup>2</sup> Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы». <https://lex.uz.ru/docs/5841063>

хозяйства» будет способствовать улучшению образа жизни сельских жителей при одновременном сокращении сельской бедности, поддержке прихода страховых компаний в сельское хозяйство для обеспечения продовольственной безопасности и созданию инвестиционной среды в отрасли, а также дальнейшему увеличению доли страховых услуг в аграрном секторе и повышению качества и оценки предоставляемых страховых услуг.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», № УП-5853 от 23 октября 2019 года «Об утверждении стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы», в Постановлении Президента Республики Узбекистан №ПП-4412 от 2 августа 2019 года «О мерах по реформированию страхового рынка Республики Узбекистан и обеспечению его опережающего развития», в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан Республики Узбекистан № 505 от 17 июня 2019 года «О совершенствовании системы страхования хлопкового сырья и будущего урожая зерновых культур», а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

**Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан.** Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологии в республике I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

### **Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации<sup>3</sup>.**

Научные и исследовательские работы, связанные с основными направлениями развития страховой деятельности аграрного сектора, проводятся разными всемирно признанными научно-исследовательскими институтами, научно-аналитическими исследовательскими центрами, высшими учебными заведениями и региональными и международными страховыми организациями,

---

